

## KONIMEX TUMANIDA TA'LIM SOHASI

**Ramatov Murat Qalvayevich**

*NavDPI Tarix fakulteti 2-kurs*

*Talabasi*

Ta'lim sohasi inson salohiyati, ma'naviyati va ma'rifatni yuksaltiruvchi tizim hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda hayotning barcha sohalarida bõlganidek ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Kadrlar dasturining qabul qilinishi, DTS, Örta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bunga yorqin misoldir.

Birgina Konimex tumanida ham ta'lim sohasida juda kõp samarali ishlar olib borilmoqda.

Konimex tumani xalq ta'limi tarixi XX Asrning 20-yillariga borib taqaladi. Sovet hukumatining dastlabki Paytlaridanoq konimexlik ta'lim fidoyilari xalq ta'limi tizimini rivojLantirish harakatida bo'lishgan. Jumladan, 1928 yil Konimex tumani xalq ta'Limi boshqarmasi tashkil etilgan. 1929 yili Konimex pedagogika kursi, 1931 Yili Konimex pedagogika texnikumi faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Mashaqqatli Mehnat ortidan dastlabki muvaffaqiyatlar qo'lga kiritiladi. Chunonchi, "Lenin" Ordeni bilan Asqar Baykenov, Solih Karimovlar, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan O'qituvchi" unvoni bilan Minasar Murotov, Pernesh Qoybag'arovlar taqdirlan-Ganlar. Keyinchalik M.Elxo'jaev, E.Ospanov, A.Rajabovlar "O'zbekistonda xizmat Ko'rsatgan o'qituvchi" unvoniga munosib topilgan. Asta-sekinlik bilan maktablar Soni ko'payib, 1930–1970 yillarda 17 ta maktab, 1970–1993 yillarda 6 ta maktab Tashkil etilib, ular soni 35 taga etgan [1;301].

Keyinchalik, 2010-2011 õquv yili boshida umumta'lim muassasalar soni Konimex tumanida 38 tani tashkil etgan. Lekin bu körsatkich 2015-2016 õquv yilida 35 ta, 2021-2022 yili esa 37 taga kamaygan va kõp maktablar qayta ta'mirlash uchun muljallangan. Ushbu maktablarda tahsil olayotgan õquvchilar soni 2010-2011 õquv yilida 4443kishi, 2015-2016-yilda 4323, 2021-2022-yilda esa 6950 nafarni tashkil etgan. Bu körsatkich 2020-2021 õquv yilida 7238 nafar kishiga kõpaygan. Öqituvchilar soni ham yildan yilga oshib bordi. Xususan, 2010-2011 õquv yilida 710 nafar, 2015-2016-yilda 742 nafar, 2021-2022-yilda esa 1103 nafar öqutuvchilar maktablarda dars berishgan. Körinib turibdiki, aynan ta'lim oluvchilar sonining oshib borishi Konimexliklar orasida ushbu sohaning yuksalishiga yana bir martda imkon yaratgan.





Maktablarning tashkiliy davomchisi hisoblangan Kasb-hunar kollejlari ham faoliyat körsatgan.Kollejlar 2010-2011 öquv yilida 3 ta bölgan bolsa,2019-2020-yilga kelib 1 tani tashkil etgan.Kasb hunar kollejlariда tahsil oladigan öquvchilar soni esa 2010-2011 öquv yilida 1804 nafar,2015-2016-yilda esa 1119 nafar kishini tashkil etgan.Öqituvchilar soni 2010-2011 öquv yilida 138 nafar,2015-2016 yilda esa 100 nafarni tashkil etgan [2].

Oxirgi ma'lumotlarga qaraganda esa bugungi kunda tuman xalq ta'limi tizimida 36 ta umumta'lim maktabi faoliyat Ko'rsatmoqda. Ulardan 2 tasi rus tilida, 3 tasi o'zbek tilida, 3 tasi qoraqalpoq tilida, qolganlari esa qozoq tilidagi maktablar hisoblanadi. Ayni paytda, tumandagi umumta'lim maktablarida 7091 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Öquvchilarning 3543 nafari qiz bolalarni tashkil etadi.Malakali pedagoglar soni 1122 nafarni tashkil etib,shundan 24 nafari oliy toifali,99 nafari birinchi toifali,263 nafari ikkinchi toifali,736 nafarni esa mutaxassislar tashkil etadi [3].

Konimex tumani xalq ta'limi tizimida Abdi Shangitboev, Jauqash ShomuroTov, Mustafo Normurodov, Solih Karimov, Maqsuda Axmerova, Ermaxan Esmaxanov, Amankeldi Qalmenov, Abdulla Adnaev, Yakuda Nurmaxanova, Maqsat Urgenishboev, Mukarrama Ismoilova, Shinixol Qoshmetov, Marziya Qalandarova, Bibiaysha AytBaeva, Kunsulu Narmuratova, Xosiyat Nizomova, Xosiyat Usmonova, Ibogul Narizova, Nasibeli Navro'zboeva, Bozor Mirakimova, O'rribbosar Namozov, Toshbibi Mamaraimovalarning xizmatlari e'tirofga sazovor. So'nggi vaqtarda Konimex tumaniDa malakali o'qituvchilar, davlatning turli mukofotlari bilan taqdirlangan Fidoyi murabbiylar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Chunonchi, Toshpo'lat Yoqubov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" unvoni, MeyRamkul Bisenova "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni, Ibo Narizova "Shuhrat" medali, "Fidokorona xizmatlari uchun" hamda "Do'stlik" ordenlari, Sanam Japbarova II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni, Riskul Serikbaeva "Do'stlik" Ordени, Baktigul Umarova "Do'stlik" ordeni, Akshagul Tulegenova "Do'stlik" ordeni, Maqsat Urgenishboev "Mehnat shuhrati" ordeni, Sevar Tog'aeva "Sog'lom avlod uchun" Ordeni, O'g'iloy Ashurova "Mehnat shuhrati" ordeni, Erejep Jumaboev, Nazokat SaDirboeva, Turegul Narimbetova, Boymurat Elibaev hamda Maharam Utkilbaevalar "Shuhrat" medallari bilan taqdirlanishgan.

Shuningdek, xalq ta'limi tizimining taniqli vakili Mengliboy Murotov Uzoq yillar yoshlarga ta'lim berish bilan birga, adabiyot maydonida ham samarali Faoliyat olib bordi. Uning 2002 yili "Diydor", 2005 yil "Yuragimda borin aytDim" nomli kitoblari, 2008 yili "Gunoh", 2009 yili "Mening bola qalbim", 2011 Yili "Savob" romanlari





dunyo yuzini ko'rdi. Konimex tumani xalq ta'limi tiziMining yana bir zabardast vakili Akshagul Tulegenovadir. Akshagul Tulegenova Xalq ta'limining turli lavozimlarida faoliyat olib borish bilan birga ijod Bilan ham shug'ullandi. Taniqli ijodkorning 2002 yili "Erkelegim keledi" nomli, 2006 yili "Sag'inish" nomli, shuningdek, "Bizdiň үүге qarlig'ash үү salg'an" nomli She'riy to'plamlari nashrdan chiqarildi. Shuningdek, uning she'rlari "Muborak Damlar" nomli, "Shyg'ilali eldiň shabiti" nomli she'riy to'plamlarga kiritilGan bo'lsa, vatanparvarlikni targ'ib etuvchi she'rlari respublika miqyosida o'tkaZiladigan mushoiralarda 2013 yili 2-o'rinni, 2015 yili 1-o'rinni qo'lga kiritdi. A.Tulegenovaning pedagogik va ijodiy faoliyatidagi yutuqlari yuqori baholanib, 1999 yil "Ijodkor o'qituvchi", 2001 yili esa "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'Limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, 2016 yil "Mustaqillikning 25 yilligi" ko'krak nishoni, 2018 yilda "Mehnat shuhrati" orDeni bilan mukofotlandi. Ayni damda Aqshagul Tulegenova 40-Zarafshon saylov okrugidan saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati sifatida mamlakatimiz rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Konimex xalq ta'limi negizida ilk qadam qo'ygan bir qancha ziyolilar oliy ta'lim tizimida ham samarali mehnat qilishmoqda. Chunonchi, filologiya fanlari nomzodi, dosent Marziya Qalandarova Toshkent davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, O'zbekiston Jahon tillari universitetidagi faoliyati davomida "Ko'ngil izhori" nomli kitobi bilan adabiyot sohasiga hissa qoshdilar.

Konimex tumani ta'lim fidoyilaridan yana biri Gulchehra Sharifjonova "Engil sanoatdagagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar" mavzuida nomzodlik dissertasiyasini himoya qilish bilan birga "Ipoteka krediti: kecha, bugun, ertaga" nomli monografiyasini chop ettirdi. Bahodir Jumaboev esa Navoiy davlat pedagogika Institutidagi faoliyati davomida "Sho'rk'o'l suv ombori ovlanadigan baliqlari Morfobiologiyasi, ekologik xususiyatlari va baliq mahsulorligini oshirish tadbirlari" mavzuidagi nomzodlik dissertasiyasini himoya qilib, zoologiya fani rivojiga katta hissa qo'shdi. Bahodir Jumabaev respublikamizda olib borilayotgan Ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirish maqsadida 2009 yili "Ta'lim Sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi bo'yicha Germaniya Federativ Respublikasining "Myuggelzee ta'lim markazi"da malakasini oshirib qaytdi.

Bahodir Jumabaev 2014 yilda Rossiyaning Nijniy Novgorod davlat universiteti bilan tuzilgan xalqaro shartnomaga asosan "O'zbekiston fauna va floraSini inventarizasiya qilish" bo'yicha xalqaro ekspedisiya guruhida faoliyat olib Borib, 60 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy maqolalari, 12 ta o'quv-uslubiy qo'l-lanmalarini chop ettirdi. Ayni vaqtida, "Zarafshon daryosi o'rta va quyi oqimi (sohili) suv havzalarining minerallanish darajasi va ularning baliqlar tarqalishi va ekologik guruhlariga ta'siri"





mavzuida doktorlik dissertasiyasi ustida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Tadqiqotchi Gavhar Hotamova esa “Oilaviy Tadbirkorlikni rivojlantirish tadqiqotlari” mavzuida ilmiy tadqiqot ishiNi olib borish bilan birga “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlatirishni ekonometrik tadqiq qilish” nomli monografiya, “Ekonomiyaliq teoriya”, “Kichik biznes va tadbirkorlik” nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalari orqali iqtisod fanini o'qitishga munosib hissa qo'shib kelmoqda [4;303].

Xulosa qilib aytadigan bolsak, bugun Konimex tumani özgacha kurinishda qad rostlamoqda. Birgina ta'lif sohasi emas, balki tibbiyat, energetika, chovachilik va boshqa sohalari ham rivojlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning aynan olis hududlarga qaratayotgan e'tiborligi bugun tahsinga sazovor. Sababi, insonlar hayotdan rozi bõlib, erkin va farovon yashash gashtini his qilmoqda. Aynan ta'lif sohasida ötkazayotgan har bir islohotlari birgina Respublika miqyosida balki Konimex aholisining ijtimoiy hayotida ham katta röl öynamoqda. Bilimli va savodli yoshlar köpaymoqda, aholining savodxonlik darajasi oshmoqda. Xullas, har bir islohot xalqqa samarasiz xizmat qilgan emas.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:**

1. Konimex tarixi: kecha va bugun. J. Mustafayev. U. Narzullayev.  
L. Berdimuratova. Z. Safarov. Sahhof 2020
2. Navstat.uz/uz.rasmiy statistika
3. <https://konimex.uz/opendata/talim>
4. Konimex tarixi: kecha va bugun. J. Mustafayev. U. Narzullayev.  
L. Berdimuratova. Z. Safarov. Sahhof 2020

